

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Logoevistika pretsedent fenomen sifatida.....	540
V.Xegay	
Intertekstual bosma sarlavhalarda oldingi matnlarni rasmiy ravishda yangilash	544
Y.Niyazova	
Chet tili sifatida ingliz tilida yozishni o'rgatishning ba'zi muammolari.....	548
Z.Tashtemirova, M.Kushmatova	
Rus va ingliz tillarida odamning ko'rinishini tavsiflovchi frazeologik ekvivalentlar	552
Sh.Xashimova	
Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar.....	556
I.Azimov	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar	560
Sh.Nurmuradova	
Texnika oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uning tashkil etilishi	567
B.Xolmirzaev	
Tildagi tasviriy ifodalarning tarjimalarda aks etishi.....	573
A.Eshniyazova	
Zamonaviy qissa tabiati.....	578
R.Ibragimova	
Milliy udumlar – milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi mezonidir	582
D.Xoshimova, M.Xusaynova	
Termin va terminologiyaning tarixiy tadriji va ular haqidagi ilmiy qarashlar	586
V.Sultanova	
O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning didaktik usullari	589
M.Xusenova, Sh.Zoitova	
Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigan xatoliklar (koreys tili misolida)	594
C.Samiyeva	
Tojik tilidagi frazeologik evfemizmlar	597
Sh.Amonturdiyeva	
Diniy matnlarga xos leksik xususiyatlar, uning boshqa funksional uslubga xos matnlar bilan o'xshash va farqli jihatlari.....	601
FANIMIZ FIDOYILARI	
KARIMBERDI EGAMBERDIYEVICH ONARKULOV	605

ZAMONAVIY QISSA TABIATI
THE NATURE OF MODERN STORY
ПРИРОДА СОВРЕМЕННОГО ПОВЕСТА

Eshniyazova Ayimxon Sheripbayevna¹

¹Eshniyazova Ayimxon Sheripbayevna

– filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo va o'zbek adabiyotshunosligida qissa janrining tarixiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va bu janrda olib borilgan izlanishlar o'rganilgan. Qissa janri kanonlaridagi o'zgarishlar, arxitektonikasi, spetsifik xususiyatlari, tabiatan shakl va mazmunga xos yangilanishga moyilligi, qissachilik taraqqiyotiga turtki bo'lgan omillar ilmiy yoritilgan. Jahon adabiyoti qissalarining o'zbek qissachiligi rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri va mustaqillik davri qissachiligidagi yangilanishlar tadqiq qilingan.

Аннотаци

Я в данной статье исследуются исторические основы жанра повести, этапы развития, исследования, проводимые в этом жанре в мировом и узбекском литературоведении. С научной точки зрения разъясняются изменения канонів жанра повести, его архитектоники, специфики, естественная тенденция к обновлению формы и содержания, факторы, побудившие развитие повести. Изучено влияние повести мировой литературы на развитие узбекской повести, а также исследованы обновления в повести периода независимости.

Abstract

This article illustrates the historical foundations of the genre of story, the stages of its development and the research conducted in this field in the world and Uzbek literature. Changes in the canons of the genre of story, its architectonics, specific features, the tendency to update the nature of its form and content, the factors that contributed to the development of short stories are scientifically covered. The influence of the stories of world literature on the development of Uzbek story writing and the innovations in this sphere of the independence period are studied.

Kalit so'zlar: qissa, janr kanonlari, povest, muallif, syujet, kompozitsiya, janr tabiati, qahramon, uch o'lchov, janr spetsifikasi, arxitektonika.

Ключевые слова: повесть, жанровые каноны, повествование, автор, сюжет, композиция, жанровая природа, главный герой, трехмерность, жанровая спецификация, архитектоника.

Key words: short story, genre canons, narrative, author, plot, composition, nature of genre, protagonist, three dimensions, genre specification, architectonics.

KIRISH

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asarning janr kanonlarini belgilash, janr strukturasi va spetsifik xususiyatlarini ochib berish, ilg'or tahlil metodlaridan samarali foydalanish va badiiy-uslubiy izlanishlarni tadqiq etish davom etmoqda. Qissa janrining evolyutsiyasi, janr arxitektonikasi, poetik imkoniyatlari, obrazlar strukturasi, muallif va qahramon o'rtasidagi parallelizm hodisasini o'rganish adabiyotshunoslikdagi muhim masalalardandir.

Qissa bugungi adabiy jarayonning qadimiy janrlaridan bo'lib, uzoq adabiy tarixiy jarayonni bosib o'tib, badiiy mukammallik kasb etgan. Qissa epik turning o'rta janri sifatida roman va hikoya oralig'idagi jarayonni aks ettiradi. Qissaning janriy xususiyatlari xususida adabiyotshunos olimlar o'rtasida bir qancha qarashlar ilgari surilgan, bahs-munozaralar yuzaga kelgan. Qissa janriga berilgan barcha ta'riflarda epik ko'lam, syujet qurilishi, qahramon tasviri asosiy o'lchov sifatida ko'rsatiladi. Qissaning poetik qurilishi obyektga – qahramonga qaratilgan bo'ladi. Qissa syujeti yakka qahramonning butun hayot yo'lidagi sarguzashtlarini emas, balki qahramon hayotining muhim va muayyan davriga oid voqealarni yoritishi bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rus adabiyotshunosligida V.Belinskiy, S.Lixachev, N.Nadejdin, L.Golovenchenko, V.Golovko, V.Kojinov va M.Baxtin tadqiqotlarida qissa tabiati, qurilishi, janr kanonlarining roman va hikoya oralig'ida o'z ijodiy vazifasini bajarishi, yakka qahramon kechmishi hikoya qilinishi nazariy asoslangan. O'zbek adabiyotshunosligida qissa janrida I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, A.Abrorov, U.Normatov, B.Nazarov, S.Mirvaliyev, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, A.Ulug'ov, D.Quronov va A.Qozixojayev kabi olimlar tadqiqot va izlanishlar olib borgan.

TILSHUNOSLIK

Qissa arabcha soʻz boʻlib, “hikoya”, “sarguzasht” maʼnolarini anglatadi. Qissa janrining kelib chiqishi muqaddas kitob bilan bogʻliq. Adabiyotshunos A.Qozixoʻjayevning qissa janri boʻyicha olib borgan kuzatishlari salmoqli ekani bilan ajralib turadi: “Qissa janri spetsifikasiga nazar tashlar ekanmiz, aynan ilohiy mohiyatga yaqinlashib kelgan qissalar janrning yorqin namunasi sifatida koʻzga tashlanishini kuzatamiz. Qissaning bu oliy koʻrinishi barcha zamon qissalari uchun namuna vazifasini oʻtashi mumkin. Inson badiiy tafakkuri ilohiy manbadan oziqlanadi. Insonga ato etilgan ilohiy ilhom uni ilohiy haqiqatlar sari yetaklaydi”.

Qurʻon oyatlarida qissalar beriladi, 28-suraning nomi “Qasas” yaʼni qissa deb nomlanadi. “Bu surada Alloh taoloning suyukli paygʻambarlaridan Muso (alayhissalom)ning tugʻilishlaridan tortib, qanday paygʻambar boʻlganlari va koʻrgan-kechirgan ibratli hayotlari boshqa suralarga nisbatan mufassal va mukammal zikr qilingani sababli u “Qasas” – “Qissa” deb atalgandir”. “Albatta, bu *voqeiy qissadir*. Allohdan oʻzga iloh yoʻq. Alloh, albatta, Aziz (qudratli) va Hakim (hikmatli)dir. (*Oli Imron surasi, 62-oyat*); “Bu oʻsha oyatlarimizni yolgʻonga chiqargan qavm kishilarining misolidir. Bu qissalarni (ularga) aytib bering, shoyad tafakkur qilsalar!” (*Aʼrof surasi, 176-oyat*). “Biz Sizga ushbu Qurʻon (surasi)ni vahiy qilishimiz bilan birga goʻzal qissani aytib berurmiz. Siz esa, (ey Muhammad!) undan (vahiydan) oldin bexabarlardan (biri) edingiz” (*Yusuf surasi, 3-oyat*). “Bas, (Muso Shuaybning huzuriga) kelib, unga oʻz qissasini, soʻylab bergach, u: «Qoʻrqmagin! Sen zolimlar qavmidan najot topding», – dedi (*Qasas surasi, 25-oyat*).

Ilohiy manba va hadislar asosida yaratilgan Rabgʻuziyning “Qissai Rabgʻuziy” asarini mumtoz adabiyotimizdagi qissa janrining mukammal namunasi, deyishimiz mumkin. Zamonaviy qissachilikning yuzaga kelishida mumtoz qissachilik asos vazifasini oʻtagan. Zamonaviy oʻzbek realistik qissasining ilk namunasi Hamzaning “Yangi saodat” asaridir. Choʻlponning “Doʻxtir Muhammadiyor” asari ham qissa. Turkiy xalqlarda, jumladan, oʻzbek adabiyotida zamonaviy qissa 20-yillarda yuzaga keldi. Qirgʻiz adabiyotida K.Bayalinov “Ajdar”, qozoq adabiyotida M.Avezovning “Himoyasizning taqdiri”, B.Maylinning “Shugening haykali”, turkman adabiyotida M.Hamroyev “Ogʻir kunlarda” qissalari fikrimizning isboti.

Qissa janrida qissanavis obrazi alohida ahamiyatga ega. Qissanavis asardagi barcha obrazlarni birlashtirib turadi va u orqali yozuvchining kechinmalari, oʻy-xayollari beriladi. Qissanavis-muallif obrazini rus adabiyotida V.V.Vinogradov, M.Baxtin, M.P.Brandes, Y.M.Lotman, B.O.Korman va oʻzbek adabiyotida O.Sharafiddinov, M.Qoʻshjonov, N.Karimov, U.Normatov, S.Mamajonov va S.Mirvaliyevlar oʻrgangan. Rus olimi V.Vinogradov qissada qissanavis obrazi masalasini oʻrganar ekan, qissanavis hamisha qahramonlar orasida boʻlishini taʼkidlaydi. Qissanavis qahramonlar xatti-harakatlarini kuzatadi, ularga baho beradi, xulosa chiqaradi. “Bu obrazda, eng avvalo, yozuvchining kechinmalari mujassam boʻladi. Shuningdek, qissa qahramonlari oʻrtasidagi oʻzaro kurash psixologik aspektda qissanavisning oʻz-oʻzi bilan kurashishini namoyon etadi”. Koʻrinib turibdiki, qissanavis asarda faqat qahramonlarning taqdirinigina emas, oʻz “men”ini ham ifoda etadi.

Qissa boʻyicha yaratilgan keyingi tadqiqotlarda janr kanonlari bilan birgalikda muallif va qahramon munosabatlariga ham urgʻu beriladi.

I.Kumskova “XIX asrda Amerika qissachiligi” dissertatsiyasida roman va qissaning janriy xususiyatlarini oʻzaro taqqoslab quyidagicha xulosa qiladi: “... qissa va romanning farqi shundaki, romanda yozuvchining ijodiy kuchi toʻliqroq, odamning dunyo bilan aloqalarini chuqur rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, qahramonning ichki dunyosiga, ongining individual-shaxsiy jihatlariga alohida eʼtibor berishda ifodalanaadi. Qissada esa qahramonning feʼl-atvori, uning dunyo bilan bogʻliqligining baʼzi bir jihatlarigina keltiriladi, bu oʻz-oʻzidan qahramonning individual-shaxsiy xususiyatlarining ahamiyatini susaytiradi va atrof muhitning ijtimoiy ong bilan aloqasini, yaʼni qahramonning ijtimoiy-tipik xarakteristikasini birinchi planga olib chiqadi...” I.Kumskova oʻz tadqiqotida qissada muallif va qahramon munosabatida qahramonning ijtimoiy muhit bilan munosabatini bosh planga koʻtaradi. Qissada inson va jamiyat munosabatlari asosida Shaxs “men”i shakllanishini taʼkidlaydi.

N.Tamarchenko qissa janrining tabiati oʻzgaruvchan ekanligini asoslaydi: “Qissa janri kanonlariga koʻra u romandan kichikroq, hikoyadan kattaroq hajmga ega boʻlishdan tashqari oʻziga xos arxitektonikasi bilan ham farqlanadi. Janr kanonlariga qatʼiy mezon sifatida yondashish bugun oʻzini oqlamaydi. Janr tabiatida qorishqlik hodisasi uchrashi tabiiy hol”. Qissaning goh romanga, goh hikoyaga tomon ogʻish hollari janr kanonlarining qatʼiy mezoniga asoslanmaganidan dalolatdir. Adabiyotshunos olim I.Sulton janrdagi bu xususiyatni quyidagicha izohlaydi: “...hech bir jins va janr

adabiy ijodda sof holda uchramaydi. Jinslar va janrlarning ma'lum darajada aralashligi, qorishiligi adabiy ijodning xarakterli xususiyatidir". Mutlaq sof holatdagi janrning o'zi yo'q. Har bir janrda boshqa janrlarga xos elementlar uchrashi tabiiy hol.

Epik janrlarning o'zak nuqtasini aniqlashda adabiyotshunos olim D.Quronov fikrlari asosli: "Roman muallifi uchun qahramon vosita – dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi – maqsad (voqeanavislar vosita), hikoyanavis uchun voqeaning o'zi maqsad bo'lib qoladi. ...Qissaning poetik qurilishi maqsadga – qahramonga qaratilgani bilan belgilanadi".

N.Tamarchenko janr kanonlari va uning poetik imkoniyatlari, obrazlar strukturasi, muallif va qahramon munosabatlariga e'tibor qaratadi: "Romanga qaraganda qissada bayon qiluvchining va qahramonning voqelikka munosabati aralash tarzda beriladi, ya'ni ikki ovoznining qorishib ketishi kuzatiladi". N.Tamarchenko o'z tadqiqotlarida qissa janri evolyutsiyasida qahramonlarning o'zini anglashi va iqror so'zining birinchi planga chiqishi, syujet sinovlari natijasida qahramon ichki dunyosining shakllanishi va finalda maqsadning aniqligini birlashtiradi. Davrga xos badiiy evolyutsiya yo'nalishi – qahramonga e'tiborning tasvir va idrok etish (baholash) subyekti sifatida o'zgarishi – bu janrda romanga qaraganda voqealar rivoji sekinroq kechadi, personajlar tizimi esa ixcham bo'ladi.

Qissaning spetsifik xususiyatlari va struktural tuzilishini tadqiq qilgan N.Tamarchenko nazariyotchi olim M.Baxtin tomonidan shakllantirilgan "uch o'lchov" konsepsiyasini izlanishlariga tatbiq etib, janrning uch aspektidagi strukturasi: syujetdagi dominant sxema, bayon tipining kompozitsion asosni tashkil qilishi, qahramon dunyosi va muallifning borlig'i o'rtasidagi aloqa tipini hisobga oladi.

Qissaning arxitektonikasi haqida N.Tamarchenko quyidagi tarkibni talqin qiladi:

1. Qissa janriga xos xususiyatlarning epic formulasida syujetning "hikoya qilinayotgan voqelik" ("события, о котором рассказывается") tipi dominantlik qiladi. Qahramonning vaziyatga ko'ra sinovdan o'tishida mana shu usuldan foydalaniladi. Qissa kompozitsiyasini tashkillantirishda bayon qilinayotgan voqelik vositasida qahramon sinovdan o'tadi, xarakteri ochib beriladi.

2. Bu tipda "hikoya qilish voqeasi" ("события самого рассказывания"). Asosiy voqeani qayta ko'rib chiqish va unga umumlashtiruvchi tugal ma'no berish, qahramonning axloqiy pozitsiyaga yo'naltirilishi hamda finalda qo'shimcha analoglar asosida yoritib beriladi.

3. Qahramon "obrazning harakat maydoni"da muallif va qahramonning jamiyat hayotidagi nomuvofiqligi, mana shu nomuvofiqlikda xarakter yoritiladi, qissadagi chiqarilishi lozim bo'lgan hissa ochib beriladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek qissa janri kanonlarini rus adabiyoti misolida o'rganish jarayonida N.Tamarchenko qissa strukturasi, syujet va kompozitsiyada sinov syujeti muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi va uchta asosiy turini ajratadi: "borliqni sinash, qahramonni sinash va g'oyani sinash". Olim "borliqni sinash" bosqichidagi kuzatishlarida qahramonning dunyoni baholash mezoniga bo'lgan nuqtai nazarining ahamiyati ortganini, diqqat tasvir subyekti mavzusiga o'tganini kuzatadi. Demak, qissalarda qahramonning tashqi olam bilan munosabatini qayta nazorat qilishda muallif nuqtayi nazari asosiy o'rinda turadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jahon adabiyoti ta'sirida zamonaviy o'zbek qissachiligida qator yangilanishlar, ya'ni voqelikning maktub asosiga qurilishi, uslub o'zgachaligi, mozaika usuli (voqealarning parchalanishi va parchalarning yaxlit g'oyaga asoslanishi), absurd qahramon, ong oqimi kabi holatlarning kirib kelishi, qahramonning ijtimoiy hayotdagi faol harakati emas, ichki dunyosida kechayotgan g'alayonlarni tasvirlash, o'z ichki "men"i bilan kurashayotgan, o'z dunyosi bilan ovora qahramonlarning qismati yoritila boshladi. Norealistik tasvir usullari, badiiy shartlilik, ramzlar, metaforik tafakkur asosiy o'ringa chiqdi. Mualliflar qissalarda inson olamini turli rakurslarda talqin eta boshladi.

"Mustaqillik davri o'zbek qissalarida uslubiy yangilanishlar, avvalo, nimalarda ko'rinadi va buning asl sabablari nima?" degan savol atrofida fikr yuritadigan bo'lsak, bu quyidagilarda ko'rinadi.

1. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar, o'z navbatida, san'at va adabiyotga ham ta'sirini o'tkazdi. Badiiy adabiyotda kuzatilayotgan o'zgarishlar, ma'lum bir avlodning shakllanishi, namoyon bo'lishi qissa janri tabiatiga ta'sir qildi.

TILSHUNOSLIK

2. Istiqloq munosabati bilan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar doirasidagi o'zgarishlar o'z navbatida o'zbek adabiyotiga adabiy aloqalar va ta'sir masalasini olib kirdi. Dunyo adabiyoti bilan tanishish, katta adabiyot orzusi ifoda va uslubda yangi vositalarni, poetik hamda mifopoetik talqin imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi. Ijodda badiiy ifodada ramz va timsollarga tayanish birlamchi ahamiyat kasb etdi. Badiiy ma'noni ramz va timsollarga yuklash, qo'shimcha ma'no urg'usi berish an'anaga aylandi.

3. Qayta qurish, oshkoralik davrida jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlar, erkka ehtiyoj boshqa davrga nisbatan faolroq tarzda ro'y berdi. Bu davr qissachiligida ijtimoiy hayot va inson tabiatidagi murakkabliklar, ziddiyatlarni taftish qilishda kinoyaviy ruh ustuvorlik qila boshladi. Ayniqsa, bu holat Erkin A'zam ijodida yorqin ko'zga tashlandi.

4. Shaxs konsepsiyasi ijodda yetakchi tamoyilga, o'zlikni anglash jarayonlarini badiiy yo'sinda ifoda qilish esa ehtiyojga aylandi. Mustaqillik davri qissalarida erkin bozor sharoitida inson tabiatida kechayotgan o'zgarishlar, moddiyatning ma'naviyatdan ustunlashuvi oqibatlarini tasvirlana boshladi. Ana shunday murakkab sharoitda o'zlikni anglash muammosi birinchi planga chiqdi, bugungi kunini taftish qilish orqali kelajakka nazar tashlash, kuzatish, tahlil qilish kuchaydi.

5. O'zbek adabiyotida ikki yirik yo'nalish yuzaga keldi: ana'naviy realizm va modernizm. Bu vaqtda o'zbek adabiyotida realizm ustuvor usul sanalib, modernizm yo'lida ijod qilish, badiiy eksperiment o'tkazishga urinish ham bir jur'at edi, aslida. O'sha davrning yetakchi avlod vakillari Sh.Xolmirzaev, M.M.Do'st, T.Murod, E.A'zam qissa janrida go'zal namunalarini yaratib ulgurgan edi. X.Do'stmuhammad tengdoshlaridan farqli ravishda badiiy eksperimentni ma'qul bildi. Realizm yo'lidagi yozuvchilar esa bunga, "changalzor-selva" (M.M.Do'st)ga ergashishni tanqid qilishdi.

XULOSA

Adib X.Do'stmuhammad fikricha: "Badiiy adabiyotda janrning yaxshi-yomoni yo'q, roman salmoqdorligi bilan, hikoya ixchamligi bilan o'ziga xos. Qissa esa romanga, hikoyaga nisbatan erkinroq, erkaroqligi bilan jozibali, ko'ngilga yaqin. Xalqimizda azal-azaldan qissanavislik, qissaxonlik keng rasm bo'lgan, bizning zamonlarga kelib bu ijod turi jahon adabiyoti tajribalariga chatishdi, janr sifatida ancha-muncha "madaniylashdi", natijada janr tabiatidagi erkinlik, ochiqlik tufayli qissaning imkoniyatlari orta bordi, ko'lami, qamrovi behad kengaydi". Natijada, o'z mazmun-mohiyati bilan folklor va mumtoz qissalardan farq qiluvchi, o'zida olam va odam manzarasini chuqur aks ettiruvchi qissalarning yangi tipi vujudga keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.:Высшая школа, 1971.
2. Волков И.Ф. Теория литературы: Учеб. пособие для студентов и преподавателей. –М.: Просвещение; Владос, 1995.
3. Qozixojayev A. Qissa janri haqida / XX asr o'zbek adabiyoti masalalari. – T.: Fan, 2012. – B. 206.
4. Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий / Гл. научный руководитель Н.Д.Тамарченко . – М.: Издательство Кулагиной Intrada, 2008.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – T.: Fan, 1979.
6. Тамарченко Н.Д. Русская повесть Серебряного века: (Проблемы поэтики, сюжета и жанра). – М.: Intrada, 2007.
7. Qur'on so'z va iboralari // Izohli lug'at. – T.: Movarounnahr, 2018.
8. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018.